



International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.

O'zbekistonda To'G'Ridan-To'G'ri Xorijiy Investitsiyalar Va Xalqaro Investitsiyaviy Mavqening Dinamikasi

Nazarov Qilich Xolmuradovich

TDIU Samarqand filiali Moliya,

solliq va bank ishi kafedrası

dotsent, v.b.

Tuychiyev Sherxon Shuxrat o'g'li

TDIU Samarqand filiali Moliya,

solliq va bank ishi kafedrası

dotsent, v.b.

ABSTRACT

maqolada iqtisodiyot modernizatsiyasi va liberallasuvi jarayoni investitsion muhit jozibadorligini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga egaligi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanishning zarurligi, тўғ'ридан-тўғ'ри хорижий инвестицияларнинг соф хажми yildan-ylilga oshib borayotganligi, O'zbekiston respublikasining sof xalqaro investitsiyaviy mavqei ko'rsatkichi oshib borayotganligi tadqiq etilgan.

Keywords: globallasuv, sof investitsiyalar, jozibadorlik, drayver ,o'sish, modernizatsiya, strategiya, muhit, faollik, mavqeyi, texnologiya, qarz instrumentlari, kapital

Kirish.

Jahon iqtisodiyotining globallasuv sharoitida mamlakatlarning investitsiyaviy jozibadorligi va moliyaviy barqarorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri bo'lib, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni jalb etish, yangi ish o'rinlari yaratish uchun juda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birgalikda, tashqi investitsiyaviy mavqey mamlakat tashqi aktiv va majburiyatlarini ifodalab, moliyaviy barqarorlikni baholash imkonini beradi.[1]

Respublikamizda Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son va 2020-yil 12-maydagi «2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi PF-5992-son Farmonlari, 2023-yil 18-avgustdagi «Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini isloh qilish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-283-son farmon va qarorlarida belgilangan vazifalarni bajarish bilan mamlakatimizda investitsiyaviy jozibadorlikning oshib borayotganligini so'nggi yillarda investitsion amaliyot sezilarli tarzda yaxshilanib, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi oshib borayotganligini yaqqol ko'zga tashlanadi.[2]

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi Tijorat banklarida investitsiyaviy faoliyatning samaradorligi va ularni rivojlantirish hamda baholash masalalari bilan ko'plab xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlar shug'ullanishgan.[3] Mazkur masala bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan xorijlik iqtisodchi olimlardan:

Rossiyalik iqtisodchi-olimlar M.V.Alikaeva, L.O.Aslanova va boshqalar fikrlariga ko'ra, "Investitsion bank krediti, odatda, loyihaning qoplash muddatidan oshib ketmaydigan muddatga, qoidaga ko'ra, bir yildan kam bo'lmagan muddatga beriladi, tasdiqlangan loyiha smeta hujjatlari doirasida tuzilgan shartnomalar bo'yicha to'lovlar bilan hujjatli tasdiqlanishi lozim bo'lgan maqsadli xarakterga ega bo'ladi" degan xulosaga kelishgan. [4]

H.Uang, P.Liang, H.Li, R.Yanglar esa texnologiyali ishlanmalariga yo'naltiriladigan investitsion loyihalar va ularning moliyalashtirish manbalarini, shuningdek ilmiy ishlanmalarni moliyalashtirish manbalari, ilmiy-tadqiqot, investitsiya riski o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganishgan. [5]

O'zbek olimlaridan professor N.Karimovning ilmiy ishida asosiy muammolar sifatida tijorat banklarining investitsion kredit berish salohiyatini oshirish muammosi, investitsion moliyalashtirish risklarini boshqarish samaradorligining pastligi, investitsion loyihalar bo'yicha taqdim etilayotgan biznes rejalarning texnik iqtisodiy jihatdan yetarli darajada asoslanmaganligi hukumatning kafolati asosida olingan investitsion kreditlardan foydalanish samaradorligining past ekanligi kabi omillarni keltirib o'tgan.[6]

Tadqiqot metodologiyasi


Tadqiqotni olib borishda analiz va sintez, induksiya va deduksiya, statistika va taqqoslash kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.[7]

Tahlil va asosiy natijalar

Jahon moliya bozorini xalqaro miqyosda globallashtirish bozor deb tavsiflash mumkin. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi oshib borayotganligini jahon moliya bozori moliyaviy globallashtirish jarayoni mahsuli ekanligi barchaga ayon.[8]

So'nggi yillarda respublikamiz iqtisodiyotida investitsion faollikni oshishi va tashqi moliyaviy aloqalarning kengayishini kuzatishimiz mumkin. Ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi va ularning tarkibiy o'zgarishlari mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda, shuningdek, xalqaro investitsiyaviy mavqe ko'rsatkichlari ham mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.[9]

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tarkibining o'zgarishi[10]




2024 yil

- Kapitalga qo'yilgan sof investitsiyalar
- Daromadlarni reinvestitsiya qilish
- Qarz instrumentlari
- MTB doirasida sof tushum
- To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar

2024 yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning sof hajmi 2023 yilga nisbatan 32 foizga oshib, qariyb 2,8 mlrd dollarni tashkil etdi. [11]

O'zbekiston Respublikasining investitsiyaviy mavqei[12]



- Davlat boshqaruv sektori
- Bank sektori
- Boshqa sektorlar
- Sof investitsiyaviy mavqey

O'zbekiston Respublikasining sof xalqaro investitsiyaviy mavqei ko'rsatkichi 2024 yilning boshiga nisbatan 11 foiz yoki 1,4 mlrd dollarga mustahkamlanib, 2025 yil 1 yanvar holatiga 13,7 mlrd dollarni tashkil etdi. Bunda, rezidentlarning chet el valyutasidagi aktivlari hajmi 96,7 mlrd dollarni, tashqi majburiyatlari hajmi esa 83 mlrd dollarni tashkil etdi.[13]

Mamlakatimizda 2019-2024 yillar oralig'idagi davrni tahlil qilganimizda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmida muayyan tebranishlarni hisobga olmaganimizda, umumiy tendensiya o'sishga yo'naltirilganligini ko'rish mumkin. 2020 yillarda jahon iqtisodiy inqirozi ta'sirida investitsiyalar hajmi qisqargan bo'lsada, keying yillarda qayta tiklanish va o'sish jarayoni kuzatildi. 2024 yilga kelib to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi eng yo'qori darajaga etgani mamlakat investitsion muhitining yaxshilanganidan darak beradi.[14]

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar holatini tahlil qilganimizda, asosiy ulush kapitalga sof investitsiyalarga to'g'ri kelishi aniqlandi, bu esa, horij investorlar tomonidan ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va real sektorga mablag' yunaltish ustuvor ahamiyat kasb etayotganini ko'rish mumkin. Shu bilan keying yillarda daromadlarni qayta investitsiya qilish hajmining ortishi investorlarning mamlakatimiz iqtisodiyotiga bo'lgan ishonchining ortayotganini anglatadi. Qarz

instrumentining past ekanligi esa investitsiyalarning barqaror va uzoq muddatli ekanligidan dalolat beradi.[15]

Xulosa.

Mamlakat xalqaro investitsiyaviy mavqei tahlili 2021-2025 yillar davomida sof investitsiyaviy pozitsiyada ma'lum pasayish kuzatilgan, bu esa qarz yukining ortishi bilan izohlanadi, 2025 yilda esa bu ko'rsdatkich qisman tiklanishi qayd etilgan.

Tarkibiy jihatdan qaralganda, davlat boshqaruv sektorining investitsiya pozitsiyasi pasayib borayotganini, bank sektorida esa manfiy pozitsiyaning kuchayishi, yani tashqi resurslarga nisbatan talabining oshayotganini ko'tish mumkin. Shuningdek, boshqa sektorlarda ham, yani xususiy sektorda ijobiy o'zgarish kuzatilib, bu mamlakatimizda tadbirkorlikning rivojlanayotganidan va investitsiya oqimi aynan shu sektorga qarab yunaltirilayotganini ko'rish mumkin.

Umuman olganda, respublikamiz iqtisodiyotida investitsion faollikning oshishi, ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hissasining ko'payish ijobiy baholanadi.

Olib borilgan tahlillar asosida quyidagi takliflarni keltirish mumkin

1. Xususiy sektorni qo'llab quvvatlash uchun to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini yanada oshirish.
2. Reinvestitsiyalarni rag'batlantirish uchun soliq va institutsional imtiyozlarni kengaytirish.
3. Davlat qarzlarini samarali boshqarish mexanizmlarini kuchaytirish.
4. Bank sektori likvidligini oshirish
5. Investitsion muhit bilan bog'liq bo'lgan islohotlarni izchil davom ettirish..

Qisqacha xulosa qilib aytganimizda, investitsiyalar oqimini samarali boshqarish va tashqi moliyaviy barqarorlikni ta'minlash respublikamiz iqtisodiyotining uzoq muddatli rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

References

- [1] "2020–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida," PF-5992-son Farmon, 12-May 2020.
- [2] "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi," PF-60-son Farmon, 28-Yanvar 2022.
- [3] "O'zbekiston – 2030 strategiyasi," PF-158-son Farmon, 11-Sentyabr 2023.
- [4] Sh. Mirziyoyev, "Oliy Majlisga Murojaatnoma," 6-Dekabr 2026. [Online]. Available: <https://president.uz/uz/lists/view/8834>
- [5] O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, "Rasmiy statistik ma'lumotlar." [Online]. Available: <https://www.cbu.uz>
- [6] A. E. Silantev, "Rol investitsionnogo kreditovaniya v RF, SShA i ES," *StudArctic Forum*, no. 1(13), 2019. DOI: 10.15393/j102.art.2019.3761.
- [7] M. V. Alikaeva, L. O. Aslanova, et al., *Strategicheskoe razvitie malogo biznesa i formy podderzhki individualnogo predprinimatelstva*. Nizhny Novgorod: Professionalnaya Nauka, 2018.
- [8] N. Karimov, "Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmlari," PhD diss. abstract, Tashkent, 2007.
- [9] A. Damodaran, *Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset*. New York: Wiley, 2012.

- [10] J. C. Hull, *Options, Futures, and Other Derivatives*, 10th ed. Pearson, 2018.
- [11] International Monetary Fund, “Global Financial Stability Report,” Washington, DC, 2023.
- [12] World Bank, “Global Economic Prospects,” Washington, DC, 2022.
- [13] European Central Bank, “Financial Stability Review,” Frankfurt, 2023.
- [14] UNCTAD, “Digital Economy Report,” Geneva, 2022.
- [15] OECD, “Financing SMEs and Entrepreneurs,” Paris, 2023.